SIRDARYO VILOYATI OQOLTIN TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 27 - oktabr 335-9-122-Q/22 Oqoltin tumani hokimligi

Tumanda tabiiy pichanzorlar va yaylovlardan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida

“O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 12, 44-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi “Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta’minlash va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 689-son qarorini ijro etish hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi “Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta’minlash va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 689-son qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

tuman hududida pichan o‘rish, tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me’yorlari, muddatlari va ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdorlari 1-ilovaga;

chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Y.Abduraximov, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (G‘.Zayriev), tuman

Irrigatsiya bo‘limi (G‘.Xamzaev) tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaaza qilish sohasidagi nazorat bo‘limi (Sh.Sindarov)lar bilan birgalikda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni qonunchilik talablari asosida amalga oshirilishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (B.Yusupov), “Oqoltin ovozi” gazetasi tahririyati (A.Pardaev) rasman e’lon qilinsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari vb F.Ibragimov va tuman hokimining o‘rinbosari Y.Abduraximovlar zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.Fazilov**

Oqoltin tuman hokimining
2022 yil 27 oktabrdagi
335-9-122-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me’yorlari, muddatlari va o‘tlatishga ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov

MIQDORLARI

T/r	Chorva mol turi	O‘lchov birligi (bosh)	O‘tlatishning me’yorlari (talab etiladigan maydon, ga)	Muddati	Ruxsatnoma berilganligi uchun undiriladigan to‘lov miqdori (bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib) % da
1.	6 oydan katta qo‘ylar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
2.	6 oygacha bo‘lgan yosh qo‘zilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
3.	6 oydan katta echkilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
4.	6 oygacha bo‘lgan uloqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
5.	Katta yoshdagi qoramollar	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
6.	Ikki yoshgacha bo‘lgan buzoqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %
7.	Katta yoshdagi otlar	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
8.	Ikki yoshgacha bo‘lgan toylar	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %
9.	Katta yoshdagi eshaklar (uy hayvoni)	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
10.	Ikki yoshgacha bo‘lgan xo‘tiklar (uy hayvoni)	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %

Oqoltin tuman hokimining
2022 yil 27 oktabrdagi
335-9-122-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari

Foydalanish muddati	Pichan o‘rish miqdori hajmlari (kg, tonna, kubametr)	Ajratiladigan maydon, ga	Ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdori
Bir yil (mavsum davrida)	kg	1 ga	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 % miqdorida